



PSIXOLOGLAR NUTQIDA DINIY ASSOTSIATIV BIRLIKLARNING IFODALANISHI

Avliyoqulova Lola Bebutovna

Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12578134>

Annotatsiya: Ushbu maqolada asosan, psixolingvistikaga oid masalalar, xususan, psixologlar nutqida uchraydigan diniy assotsiativ birliklarning aks etishi masalasi yoritilgan. Mavzuni yoritishda aniq xulosalarga erishish maqsadida ingliz va o'zbek psixologlari nutqi o'zaro qiyoslandi.

Kalit so'zlar: *psixolog nutqi, til va din, diniy assotsiativ birliklar, milliy-madaniy qarashlar, ruh, qalb, ong, Alloh*

Аннотация: В данной статье освещаются вопросы, связанные с психолингвистикой в частности, отражение религиозных ассоциативных единиц, встречающихся в речи психологов. Выступления английских и узбекских психологов сравнивались друг с другом, чтобы прийти к однозначным выводам по теме.

Ключевые слова: *Речь психолога, язык и религия, религиозные ассоциативные единицы, национально-культурные воззрения, дух, душа, разум, бог.*

Annotation: In this article, the issues related to psycholinguistics, in particular, the reflection of religious associative units found in the speech of psychologists, are covered. The speeches of English and Uzbek psychologists were compared to each other in order to reach clear conclusions about the topic.

Keywords: *psychologist speech, language and religion, religious associative units, national-cultural views, spirit, soul, mind, god*

"Psixologiya" so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, "ruh, qalb, ong haqidagi ta'limot" degan ma'noni anglatadi. "Ruh", "qalb" birliklari esa diniy dunyo manzarasining markaziy tushunchalarini ifodalaydi¹. Til inson hayotining turli tomonlarini aks ettiradi, shu jumladan, diniy hayotni ham. Til va din ikki madaniy hodisa sifatida chambarchas bog'liqdir. Zero, "Til dinni, din esa tilni yaratadi"

(Gao chiang jiang). Bundan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, psixologlar nutqida diniy e'tiqod bilan bog'liq tushuncha ifodalovchi birliklarning qo'llanishiga milliy madaniyatni aks ettiruvchi omil sifatida qarash mumkin. Bu jihat, asosan, ingliz psixologlari nutqi bilan solishtirish jarayonida o'zini ko'rsatdi. Shu o'rinda xalqimiz iymon-e'tiqodi kuchli xalq sifatida nafaqat o'z

¹ Sheraliyeva Sh. Diniy frazeologik birliklar madaniyatlararo aloqa vositasi sifatida. Maqola. – Toshkent: Eurasian Journal of academic research – innovative academy, 2022. B. 4-7





milliy-madaniy qadryatlarini, balki butun bir hayot tarzini shu e'tiqod asosida barpo etgan deyishimiz mumkin. Oliy toifali psixolog, professor Shoira Isoqovaning aytishicha, "Insonning ruhiga bo'lgan hujm uning e'tiqodini yo'qqa chiqarish bilan barobar". E'tiqodning yo'qolishi esa umrning tugashidir.

"Sevgi aslida, Allohning bizga bo'lgan mehridir. Inson toki shu ishqning tajallilarini topmaguncha haqiqiy muhabbat nima ekanini anglamaydi. Ya'ni, tajalli degani uning aksi. Ruhimiz bu sevgini (Allohning sevgisini) taniydi. Shuning uchun ham ruhimiz uning sevgisini tajallilardan izlaydi".

Psixolog Muxtazar Nazarovaning "Siz muhabbatni kimdan kutasiz?" deb nomlangan ma'ruzasidan olingan ushbu parchadagi ajratilgan o'rinlarga diqqat qaratamiz. Unda **Alloh, tajalli, Allohning sevgisi, ruh** kabi birliklar tinglovchi psixikasiga nutq mazmunini kuchli va oson yetkazishi bilan birga, uning e'tiqodini mustahkamlash va bu orqali ruhini davolash kabi funksiyalarni bajarishga xizmat qiladi. Chunki, inson muayyan mavzuga qaratilgan nutqni tinglash va uni idrok etish jarayonida unda nutq mazmuniga mos kayfiyat paydo bo'ladi. Bunga nutqdagi assotsiativ so'zlar hosil qilgan reaksiya sabab bo'ladi. Agar psixolog nutqida diniy sohaga oid assotsiativ birliklar ishtiroki kuzatilsa, demak, nutqni tinglovchilar auditoriyasida diniy sohaga oid assotsiatsiyani ham belgilab beradi. Psixologlar nutqida diniy sohaga oid birliklarning ishtiroki hodisasini ingliz psixologiyasi bilan chog'ishtirish asosida ko'rib chiqamiz. Butun dunyoga mashhur "Sir" nomli ingliz psixologik filmi bilan ko'pchilik tanish bo'lsa kerak. Quyida undan orzularga erishish va baxtga yetishning sirlari bayon etilgan nutqdan bir parcha keltiramiz:

"Siz tan olasizmi, yo'qmi, qonun qonunligicha qoladi, u sizning ishonchingizga muhtoj emas, baribir ishlayveradi. Sizning orzularingiz va baxtingiz ham butun olam tortishish qonuni asosida ishlaydi. Hozirgi ahvolingiz qanday bo'lishining ahamiyati yo'q. Agar istasangiz shu zahotiy o'zingizni sog'lom va baxtli, badavlat his qilishingiz mumkin. Bu fikrning eng muhim va foydali jihati shundaki, siz o'zingizni hozirgi ahvolingiz qanday bo'lishidan qat'i nazar sog'lom, baxtli va boy his qila boshlashingiz bilan, haqiqatdan ham shunday bo'lishni boshlaysiz. Jarayon darhol ishga tushib ketadi".

Endi esa psixolog Muxtazar Nazarovaning "Men va baraka" nomi ostida o'tkazilgan offline treningidan olingan parchaga diqqatingizni qaratamiz: *"Sizning muammoyingiz qanchalik katta bo'lmasin, undan chiqib ketish siz uchun nechog'lik mushkul bo'lmasin, shu narsani hech qachon esingizdan chiqarmangki, bu muammolar, bu mushkulotlar yechimi Yaratgan uchun hech nima emas. Sizdan talab etiladigani faqatgina Allohning ko'magiga ishonish va hammasini unga*





tavakkal qilishdan iborat. Biz o'z orzularimizga erishish, maqsadlarimizning amalga oshishi, (e'tibor bering, amalga oshirish demayapmiz) "amalga oshishi" uchun qo'limizdan kelgan barcha sabablarni qilamiz, natijani esa bizga Alloh beradi. Shunchaki hammasini Allohga tavakkal qilish, chunki uning sizning hayotingiz xususidagi rejaları sizning rejalaringizdan yaxshi va buyukdir".

Yuqorida keltirilgan ikki psixologik ma'ruza matniga diqqatli bo'lsak, ikkala matnda ham bir xil mazmun va g'oya ilgari surilayotganini sezishimiz qiyin emas. Ammo, bunda bizga ko'rinib turgan birgina farq psixologlarning shu mazmun-g'oyani yetkazishda turli assotsiativ birliklardan foydalanganligidir. Birinchi nutq matnidan farqli, ikkinchi nutqda ishtirok etgan **diniy assotsiativ birliklar** majmuyi faqatgina psixologning emas, balki u mansub bo'lgan millatning ham milliy-madaniy qarashlarini ifoda etishga va saqlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abuzalova M.K. Lingvistika va tibbiyot hamkorligi ijtimoiy zarurat sifatida. Maqola. – Buxoro: “Soha lingvistikasi: tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlari hamda istiqbollari” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 2021. – B.16-42
2. Adilova S. Tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasi. Maqola – Buxoro: “Soha lingvistikasi: tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlari hamda istiqbollari” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 2021- B.37
3. Arziqulov R. Sog'lom turmush tarzi asoslari (Valeologiya) – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2009
4. Белянин В.П. Основы психолингвистической диагностики (Модели мира в литературе).- М.: Тривола, 2000. – С. 137
5. Fitrat A. Tilimiz. Maqola. – Toshkent: Fan, 1993. – B. 237-240
6. Fraisse P. La psycho-linguistique//Problems de psycho-linguistique. –Paris, 1965. – P.5

